



## TOSHKENT SHAHARIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot*  
**2023- yil yanvar - fevral**



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **29 610** tani tashkil etib, 2022- yil 1- martga nisbatan **2 237** taga kamaygan (o'sish sur'ati **92,9 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **361** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **29 243** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar- fevral oyida Toshkent shaharining chakana savdo tovar aylanmasi **9660,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **107,5 %** ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **3896,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **123,1 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining to-var aylanmasi **5 561,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **113,1 %**), shundan uyushma-gan savdo tovar aylanmasi **202,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,4 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI  
VA O'SISH SUR'ATLARI**



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda
--	-----------------------	---	--------------------------------------	---	--	---

**Toshkent shahar .** 9660,2 107,5 3896,4 123,1 5763,7 113,5


*tumanlar:*

Ucnstepa	1063,8	100,2	192,1	138,7	871,6	108,2
Bektemir	679,6	102,2	80,8	131,1	598,8	113,7
Yunusobod	1163,3	140,8	529,8	223,7	633,4	123,1
Mirzo-Ulug'bek	538,3	118,9	310,5	152,8	227,8	104,6
Mirobod	772,3	92,5	379,6	88,0	392,7	111,6
Shayxontoxur	958,0	119,9	426,6	125,8	531,3	132,3
Olmazor	864,6	103,2	395,4	112,0	469,2	110,8
Sergeli	491,8	112,3	259,1	133,3	232,8	109,4
Yakkasaroy	1011,5	119,3	413,7	161,9	597,9	115,6
Yashnobod	775,5	115,5	340,2	149,4	435,2	112,4
Yangihayot	124,8	166,8	55,0	1 791,5	69,8	111,4
Chilonzor	1216,9	82,6	513,7	71,3	703,2	107,0

2023- yilning yanvar - fevral oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (**166,8%**), Yunusobod (**140,8%**), Shayxontoxur (**119,9%**) va Yakkasaroy (**119,3%**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

# YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

## Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar -fevral, mlrd.so'm)




So'nggi 6 yillikda chakan savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yilning mos davriga nisbatan **107,5%** ni yoki **9 660,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar -fevral oy)



2023- yilning yanvar - fevral oyida o'sish sur'ati 107,5% ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Toshkent shaharida chakana savdo Tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **12,6 %** bilan **1216,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Toshkent shaharida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Yangihayot tumani **1,3 %** bilan **124,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shaharida chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'siish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 660,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar – fevral oyiga nisbatan **107,2%** ga kao'paydi. Toshkent shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **59,7 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega tumanlar(foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar – fevral oyiga nisbatan **123,1 %** ga o'sdi va **3 896,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **40,3 %** ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar      ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ychtepa (**15,3 %**), Chilonzor (**12,3 %**) va Yunusobod (**10,9 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **40,3 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Yunusobod (**13,6 %**), Chilonzor (**13,2 %**), Shayxontoxur (**10,9%**), Yakkasaroy (**10,6 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>3 320,8</b>	<b>104,3</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	3 672,0	97,6
Bektemir	12 701,9	97,2
Yunusobod	3 205,5	137,9
Mirzo-Ulug'bek	1 690,1	116,2
Mirobod	5 228,8	90,5
Shayxontoxur	2 679,6	117,8
Olmazor	2 215,8	100,8
Sergeli	3 185,5	103,5
Yakkasaroy	8 066,2	116,8
Yashnobod	2 730,5	111,4
Yangihayot	799,7	151,6
Chilonzor	4 520,3	80,9

2023- yilning yanvar - fevral holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 320,8 ming. so'mni (2022- yilning yanvar -fevral oyiga nisbatan **104,3 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Bektemir (**12 701,9** ming. so'm), Yakkasaroy (**8 066,2** ming. so'm) va Mirobod (**5 228,8** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Toshkent shahari bo'yicha 2023- yilning yanvar -fevral oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **202 745,9** mln. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar - fevral oyiga nisbatan **109,4 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **192 936,6** mln. so'mni (111,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **9 809,3** mln. so'mni tashkil etdi (**83,4 %**).

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



### Tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mln. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahar.</b>	<b>202 745,9</b>	<b>109,4</b>	<b>122 238,3</b>	<b>111,2</b>	<b>4 513,0</b>	<b>81,9</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	18 533,9	102,3	5463,3	161,0	-	-
Bektemir	33 471,8	123,4	36598,1	415,4	-	-
Yunusobod	26 221,9	117,4	27636,0	96,3	-	-
Mirzo- Ulug'bek	20 391,8	106,1	3554,8	18,8	-	-
Mirobod	10 323,5	98,8	4322,2	354,1	-	-
Shayxontoxur	18 829,9	126,8	33514,9	5174,4	-	-
Olmazor	8 555,2	60,1	3204,5	82,6	5,7	120,4
Sergeli	8 355,4	101,7	4395,2	-	-	-
Yakkasaroy	13 924,8	101,8	1839,4	52,3	-	-
Yashnobod	25 422,8	141,2	1474,4	-	-	-
Yangihayot	1 500,7	95,8	-	-	-	-
Chilonzor	17 214,3	98,2	235,6	5,2	4 507,3	81,8

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar - fevral oylatida Toshkent shaharining barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **122 238,3 mln. so'mni** tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga(**47 036,3 mln.so'm**) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	Mln. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <span style="color: green;"><b>47 036,3</b></span>
	<b>Non va non mahsulotlari</b> <span style="color: green;"><b>7 515,7</b></span>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar) <span style="color: green;"><b>15 467,6</b></span>
	<b>Tovuq go'shti</b> <span style="color: green;"><b>18 245,4</b></span>
	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar) <span style="color: green;"><b>9 430,0</b></span>
	<b>Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)</b> <span style="color: green;"><b>3406,4</b></span>
	<b>Tuxum</b> <span style="color: green;"><b>4 412,0</b></span>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b> <span style="color: green;">-</span>
	<b>Ziravorlar</b> <span style="color: green;"><b>11 398,6</b></span>
	<b>Tuzlamalar</b> <span style="color: green;"><b>4 384,5</b></span>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi) <span style="color: green;"><b>941,6</b></span>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b> <span style="color: green;">-</span>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mln so'm

2023- yilning yanvar- fevral oyida Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tumanida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **4 513,0** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **3 746,3** mln.so'm, qo'y va echkilar – 476,9 mln. so'mni, otlar – **284,0** mln. so'mni, parrandalar – **5,7** mln. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mln. so'm
 2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar	2763,8
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	452,5
 1 yoshgacah bo'lgan yosh mollar	530,2
 Qo'ylar	387,4
 Otlar	284,0
 Echkilar	89,5
 Kurka, o'rdak, g'oz	2,5
 Tovuqlar	3,2
 Quyonlar	-
 Qushlar	-

2023- yil 1-mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **5 320** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – mart holatiga nisbatan **1 576** taga kamaygan va o'sish sur'ati **71,1 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **45** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **5 272** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **8,6 %** ni tashkil etib, **834,0** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **102,5 %** ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining **58,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>834,0</b>	<b>102,5</b>	<b>344,6</b>	<b>136,0</b>	<b>489,4</b>	<b>107,1</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	21,4	84,5	-	-	21,4	105,1
Bektemir	19,5	111,0	8,8	120,3	10,7	127,8
Yunusobod	105,9	96,9	34,3	136,8	71,6	104,3
Mirzo-Ulug'bek	67,7	86,2	7,3	260,7	60,4	97,7
Mirobod	56,2	93,7	7,4	75,0	48,7	119,4
Shayxontoxur	232,6	109,1	178,4	126,8	54,3	91,8
Olmazor	45,1	88,6	4,5	156,4	40,7	103,7
Sergeli	78,7	173,7	61,9	234,2	16,8	109,2
Yakkasaroy	57,6	89,8	5,7	79,2	51,8	111,7
Yashnobod	69,5	94,3	26,4	100,4	43,0	111,5
Yangihayot	11,8	96,6	-	-	11,8	119,6
Chilonzor	68,0	106,8	9,8	228,5	58,2	120,2

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- mart holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2 840,8** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **113,9 %** ga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 503,8** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **165,1 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **1337,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati –**92,7 %**) tashkil qildi.

### **Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda**



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot



	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
--	---------------------	-------------------

**Toshkent shahri** **2840,8** **100,0**


*tumanlar:*

Uchtepa	99,5	3,5
Bektemir	141,7	5,0
Yunusobod	618,3	21,8
Mirzo-Ulug'bek	140,3	4,9
Mirobod	109,1	3,8
Shayxontoxur	216,4	7,6
Olmazor	18,2	0,6
Sergeli	900,4	31,7
Yakkasaroy	223,5	7,9
Yashnobod	156,5	5,5
Yangihayot	78,9	2,8
Chilonzor	138,0	4,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Sergeli (**900,4** mlrd. so'm), Yunusobod (**618,3** mlrd. so'm) va Yakkasaroy (**223,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Toshket shahar bo‘yicha 2023- yilning yanvar - fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **14 470,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,0 %** ga o‘sdi.



### Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **8 626,2** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **94,2 %** ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **59,6 %** ni tashkil qildi.



## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Yangihayot (**2,1 b.**), Yunusobod (**114,7 %**), Yakkasaroy (**114,0 %**) va Olmazor (**113,7 %**) tumanlari kuzatildi.


2023- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **18 568** tani tashkil etib, 2022- yil 1- mart holatiga nisbatan **3 514** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **123,3 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **361** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **33 570** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonala r mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oyiga nisbatan, foizda
--	--------------------	---	--	---	---	---

**Toshkent shahar .** **14 470,0** **103,0** **5 843,8** **119,6** **8 626,2** **94,2**

*tumanlar:*

Uchtepa	1 009,6	91,5	75,8	121,3	933,8	89,7
Bektemir	159,3	100,3	12,5	327,1	146,9	94,7
Yunusobod	1 566,7	114,7	563,9	151,5	1 002,8	100,9
Mirzo-Ulug'bek	1 078,8	96,6	226,2	118,5	852,6	92,1
mirobod	1 192,9	99,8	356,5	121,4	836,4	92,7
Shayxontoxur	845,4	101,9	198,0	105,5	647,5	100,8
Olmazor	2 655,0	113,7	1 478,6	128,6	1 176,4	99,3
Sergeli	643,3	96,2	277,9	134,0	365,4	79,2
Yakkasaroy	1 856,5	114,0	1 108,4	153,0	748,1	82,7
Yashnobod	1 854,4	104,1	1 028,4	111,7	826,0	95,9
Yangihayot	59,4	211,3	33,7	33695,4	25,7	91,7
Chilonzor	1 548,6	84,6	483,9	62,6	1 064,6	100,6



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Тел. 71-202-88-21 (20)**